



ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>



WEDDING: ABOUT THE CEREMONY OF BRINGING THE BRIDEGROOM AND THE BRIDE

Kuvonchbek S. Koshboyev

Junior Researcher, Master's Student

Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: khajutbekqoshboyev@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: marriage, family, groom, groomsmen wedding, bride, bride-groom, customs.

Received: 17.07.23

Accepted: 19.07.23

Published: 21.07.23

Abstract: All nations have their own customs, traditions and ceremonies, and they are the product of a certain historical period and appeared as a result of the influence of material living conditions; it has been strengthened over the time and passed down from ancestors to generations. One of such traditions is wedding celebrations. Wedding days are one of the best days of the Uzbek people. Perhaps that is the reason why the Uzbek people have a number of traditions related to the term "wedding", such as "cradle wedding", "circumcision wedding", "house wedding", "marriage wedding". We can even see that these ceremonies are embedded in the daily life of the population.

NIKOH TO'YI: KUYOVNAVKAR VA KELIN OLIB KELISH MAROSIMLARIGA DOIR

Quvonchbek S. Qo'shboyev

kichik ilmiy xodim, magistratura talabasi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: quvonchbekqoshboyev@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: nikoh, oila, kuyov, kuyovnavkar, to'y, kelin, kelin-kuyov, odatlar.

Annotatsiya: Barcha xalqlarning o'ziga xos urf-odat, an'ana va marosimlari mavjud va ular muayyan tarixiy davrning mahsuli bo'lib, moddiy turmush sharoitining ta'siri natijasida

paydo bo'lgan; vaqt o'tgan sayin mustahkamlanib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan. Shunday an'analardan biri to'y bayramlaridir. O'zbek xalqining eng yaxshi kunlaridan biri to'y o'tkaziladigan kunlar hisoblanadi. Ehtimol, shu sabab ham o'zbek xalqning "beshik to'yi", "sunnat to'yi", "uy to'yi", "nikoh to'yi" kabi "to'y" atamasi bilan bog'liq bir qancha urf-odat va marosimlari bo'lib, hatto ularni aholining kundalik hayotiga singib ketganligini ham ko'rishimiz mumkin.

СВАДЬБА: О ЦЕРЕМОНИИ ПРИВЕДЕНИЯ ЖЕНИХА И НЕВЕСТЫ

Кувончбек С. Кошбоев

младший научный сотрудник, магистрант

Институт истории Академии наук Республики Узбекистан

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: khajutbekqoshboyev@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: брак, семья, жених, женихи свадьба, невеста, жених, обычаи.

Аннотация: У всех народов есть свои обычаи, традиции и обряды, и они являются продуктом определенного исторического периода и появились в результате влияния материальных условий жизни; оно укреплялось с течением времени и передавалось от предков к поколениям. Одной из таких традиций являются свадебные торжества. Дни свадьбы - одни из лучших дней узбекского народа. Возможно, поэтому у узбекского народа существует ряд традиций, связанных с термином «свадьба», таких как «свадьба колыбели», «свадьба обрезания», «домашняя свадьба», «брачная свадьба». Мы даже можем видеть, что эти обряды встроены в повседневную жизнь населения.

KIRISH

Katta shodiyona, tantanalar bilan o'tadigan to'ylardan biri bu – shubhasiz nikoh to'yidir. Nikoh to'yi qisqa qilib aytganda ikki yoshning boshini qovushtirishdir. O'zbeklarda nikohning bir qancha turlari va shakllari mavjud bo'lib, ulardan keng tarqalgani monogamiya (bu bir nikohlik bo'lib, ayol kishi o'z uyini tark qilib turmush o'rtog'ining uyiga ko'chib o'tish) hisoblanadi. Ushbu nikohda kuyov tomon kelinni ota uyidan yangi uyga olib kelishadi va ushbu jarayonda qadimdan turli xil urf-odat va marosimlar amalga oshirilgan bo'lib, bunday an'analar turli xil transformatsiyaga uchragan holda hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Jumladan, Buxoro

vohasining bir qancha qishloqlarida “kuyov elitish”, “kelin elitish” ma’rosimlari mavjud bo‘lib, “kuyov elitish” xalq orasida “sarpo kiyish” deb ham nomlangan. Bunda kelin tomonidan yuborilgan barcha kiyimlar kuyovga tantanali tarzda kiydirilgan, so‘ng esa qutlovlar ostida kuyov ustidan shirinliklar sochilgan. Keyin esa kuyovnavkarlar bilan jam bo‘lishib, darvoza bo‘zag‘asida yoshi keksa insonlarning duolarini, oq fotihasini olishgan. Kuyovnavkarlar kelinning uyiga jo‘nashdan oldin albatta kuyov olov atrofida aylanishi rusum bo‘lgan va bunga turli xil yomonliklardan asraydi deya ishonilgan. Shuni qayt etish kerakki, olovni muqaddas sanab, uning atrofida aylanish, olovga poklovchi, turli xil yomonliklardan saqlovchi vosita sifatida qarashning tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Avestoda yozilishicha, qadimda ajdodlarimiz, olovni nafaqat issiqlik va yorug‘lik manbai sifatida muqaddas hisoblashgan, balki u o‘z shulasi bilan insonga ta’sir qiluvchi zararli kuchlarni kuydiruvchi, poklovchi va yorug‘lik ramzi sifatida zulmatga qarshi kurashuvchi kuch sifatida ham e’zozlashgan. Olovga bo‘lgan hurmat va e’tibor odatlarining ba’zi bir ko‘rinishlari nafaqat Buxoro, Xorazm, balki Farg‘ona vodiysining ba’zi hududlarida istiqomat qiluvchi aholi turmush tarzida ham hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

ASOSIY QISM

Kuyov va kuyovnavkarlarning kelinning uyiga borishlari ham turli hududlarda turlicha ko‘rinishda bo‘lgan. Buxoro vohasida kuyovnavkarlar kuyovni qurshab olgan holda, kelinnikiga ketayotganini bildirish maqsadida mash’alalar yoqishib, turli xil kuy-qo‘shiqlar kuylashib, karnay-surnay, nog‘ora sadolari ostida o‘yin kulgi qilib borishgan. Bunday udumlarning amalga oshirilishi nafaqat to‘y shodiyonalari, hursandchilik belgisi bo‘lgan, balki “yomon kuchlardan, har xil balo-qazolardan asrovchi” magik vosita ham sanalgan va bizning fikrimizcha, aynan mana shu xususiyat bunday udumlarning asriy an’ana sifatidagi yashovchanligini saqlashdagi asosiy omillardan biri bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu jarayondagi kuy-qo‘shiqlar, ulardagi so‘z va jumlar ham muayyan ramziy ma’noga ega bo‘lib, ularning vujudga kelishiga ham bir qancha omillar sabab bo‘lgan. Ko‘rinishidan, kuy-qo‘shiqlar yumoristik ruhdagi, xursandchilik ulashish, kayfiyatni ko‘tarish uchun aytilgandek tuyilsada, undagi jumalarning tag zamirida bo‘lajak oila, kelin-kuyov uchun pand-nasihat, ularga ezgu tilaklar bildirish istaklari yotgan. Hozirgi zamonaviy jamiyatimizda, bu urf-odatlar biroz o‘zgarishga uchraganini, hatto unutilib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, yurtimizning boshqa hududlarida kuyov va kuyovnavkarlar kelinning uyiga kelayotganini bildirish uchun, ilgargiday turli ko‘rinishdagi kuy-qo‘shiqlarni kuylab emas, aksincha, zamonaviy mashinalarda signallar chalib, shunchaki kelin olib kelish uchun kelganliklarini bildirish maqsadidagina shovqin-suron ko‘tarib kelinning uyiga kirib kelishmoqda.

Kuyovnavkarlar kelinnikiga yetib borishganda, u yerda ham turli xil rasm-rusumlar amalga oshirilgan. Jumladan, Farg‘ona vodiysida, kuyov bolaga to‘n, do‘ppi kiydirib, beliga belbog‘ bog‘lash odati bo‘lib, bu odat bajarilishining ham o‘ziga xos sabablari bo‘lgan. Xususan, bu bir tomondan, kuyovga bo‘lgan hurmat, izzat-ikromning belgisi bo‘lsa, ikkinchi tomondan kuyovni kelin oilasining yangi a‘zosiga aylanganligini bildirgan.

Xorazm hududlarida ham kelin olib kelish marosimi boshqa hududlarnikidan biroz farq qilgan. Nikoh to‘yi kuni ertalab har ikki xonadonda ham to‘yga tayyorgarlik boshlangan, patir yopilgan va qatlamalar pishirilgan. Kuyov xonadonida qudalarnikiga kelin olib kelish uchun boradigan alohida shaxslardan iborat guruh tayinlangan va ular odatda urug‘ning yoshi ulug‘ insonlaridan iborat bo‘lib, bu jamoa “barkash” deb nomlangan. Kelinning onasi qizi uchun olib qo‘ygan dasturxoniga kuyov va do‘stlari uchun maxsus “choyxalta” tayyorlanib unga bir qancha yeguliklar solingan, shuningdek oshda pishgan go‘shning to‘sh qismi olinib, dasturxonada nonning orasiga qo‘yib, o‘ralib kuyovga taqdim etilgan. Shunga o‘xshash holatlar, yurtimizning boshqa hududlarida ham kuzatiladi. Jumladan, Farg‘ona viloyatida joylashgan Bo‘ston qishlog‘ida, kuyov va uning do‘stlari uchun kelin uyida alohida xonada maxsus dasturxon yozilib xonaning to‘ri qismida kuyov uchun alohida o‘rin ajratilgan. Kuyovning oldiga pishirilgan va turli xil bezaklar bilan bezatilgan go‘shning to‘sh qismi maxsus idishda olib kelingan, kuyov tomonidan esa pichoq yordamida ushbu to‘shni kuchli zarb bilan urib teshishi va shu bilan birgalikda uning ostidagi idishni sindirmasligi ham lozim bo‘lgan, bu bilan bo‘lajak kuyovning kuchi va aqli sinovdan o‘tkazilgan. Shu kabi turli xil marosimlar hududlarga qarab bir-birdan farq qilgan. Masalan, Qashqadaryo vohasining ma‘lum tumanlarida kelinnikiga kelgan kuyov va kuyovnavkarlarni maxsus xonaga olib kirishgan va ko‘zlari achishguncha isiriq tutatishgan, bu bilan ularning barcha ziyon-zahmatlar, insu-jinslardan xalos bo‘lishiga ishonilgan. Isiriqdan bunday maqsadlarda foydalanish yangilik bo‘lmagan. Qadimda, bundan bir necha ming yillar avval ham ajdodlarimiz isiriqni muqaddas o‘simlik sifatida qadrlashgan va undan kasalliklarni oldini olishda, shuningdek, bolani beshikka bog‘laganda, uyga begona odam kirib kelganda, kelin tushirganda xavfsizlik nuqtai nazaridan ehtiyot chorasi sifatida foydalanishgan. To‘y kuni alohida bir uyga kuyov va uning do‘stlari uchun maxsus joy hozirlash udumi Yuqori Zarafshon vohasida istiqomat qiluvchi o‘zbeklar orasida ham mavjud bo‘lgan, biroq boshqa hududlardan farqli o‘laroq, kuyov qaynota-qaynonaning uyiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib borishi mumkin bo‘lmagan, shu sababdan ham ushbu maxsus joy kelinning uyida emas, uning qarindoshlaridan birinikida hozirlangan.

Hozirgi davrga kelib, kelinni uning ota uyidan turli xil qimmatbaho rusumli avtomobillarda olib ketish urf bo‘lgan bo‘lsa, bundan bir necha yillar muqaddam, kelinni o‘z uyidan olib ketish

ham turli hududlarda turlicha bo'lib, bu o'sha aholining yashash sharoiti bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Masalan, Qashqadaryoda kelinni otga mindirib olib ketgan bo'lsalar, Farg'onada, odatda kelinni aravada olib ketganlar. Bunda bir aravaga kelin, uning yangalari va qizlar o'tirishsa, boshqa aravaga kelinning sepi ortilgan. Xorazmda ham yigit uyidan kelin uchun maxsus arava yuborilgan va bu xalq orasida "bo'lish arava" deb nomlangan.

XULOSA

Shuni alohida qayt etib o'tish joizki, kuyov tomonidan kelinni olib ketish har doim ham oson kechmagan. Voha qishloqlarida kuyov o'z jo'ralari ("kuyov navkar", "kuyov og'alar") bilan kelin xonadoniga yaqinlashganda mahalla yigitlari ularga qarata kesak otishgan. Bundan kuyov jo'ralari ranjimasdan, udumga ko'ra kelin tomon yigitlariga "shog'uloq" (juni olinmagan bir yoshli uloq) yoki qanchadir miqdorda pul berishgan. Yoshi ulug'larning aytishicha Farg'ona vodiysining ba'zi qishloqlarida ham mahalliy yigitlar tomonidan kuyovnavkarlarning yo'li to'silib, ulardan "sovg'a"lar olishgan, agar kuyov boshqa qishloqdan yoki uzoqroq joydan bo'lsa, iloji boricha ko'proq "sovg'a"lar talab qilishgan. Yurtimizning boshqa hududlarida, jumladan, Xorazmning ba'zi qishloqlarida kelinning kuyov uyiga kelishida, mahallaning yosh bolalari, yigit-yalanglar ular o'tishi mumkin bo'lgan ko'prik yo'lini to'sib, kelin yangalaridan sovg'a-salomlar olishgan. Bunday "yo'l to'sish"lar odat tusiga kirib qolgani uchun kelin yangalarida oldindan tayyorlangan sovg'a-salomlar mavjud bo'lgan. Shuningdek, kelin aravasini to'xtatgan yigitlarga berilgan sovg'alar xalq orasida "qa'da" ham deyilgan. Samarqand hududlaridagi ayrim joylarda kelin yo'lini to'sish "po'ta tutish", "arqon tutish" yoki "baqqon" kabi atamalar bilan ham yuritilgan. Bunday udumlarning bajarilishini, yangi joyga qarindosh bo'layotgan kuyov tomon, yoki yangi qishloqqa tushayotgan kelin tarafning shu yerlik yoshlarga sovg'a-salomlar bilan kirib kelishi, bu yo'l bilan ularni hursand qilishi, ularning mehrini qozonishi, bundan tashqari sovg'a-salomlar olgan "yo'l to'sar"larning ularning haqqiga duo qilib, xursandchilik bilan iliq kutib olishiga sabab bo'lishi bilan ham izohlash mumkin. Hozirga kelib, ushbu udumlar turli xil ko'rinishlarda o'lkamizning ayrim hududlarida, asosan chekka tuman-qishloqlarda saqlanib qolingan.

Tarixan shakllangan, yillar davomida amalga oshirib kelinayotgan, urf-odat, an'ana va marosimlar o'sha xalqning turmush-tarzi, kundalik hayoti, diniy tafakkurlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Shu jumladan, nikoh to'yi marosimlari, undagi kuyovnavkar va kelin olib kelish bilan bog'liq turli xil urf-odat, an'analarning bajarilishida ham ma'lum ma'noda xalqning qarashlari aks etgan. Bunday udumlar bajarilishida ham muayyan maqsadlar bo'lgan. Yo'l davomida kuylangan kuy-qo'shiqlarda kelin-kuyovlarga o'gitlar, ezgu tilaklar va pand-nasihatlar aks etgan bo'lsa, kelin va kuyov xonadonidagi bajariladigan udumlarda avvalo yangi oila uchun

egulik, yaxshi tilaklar bilan birgalikda ikki yangi qarindoshlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари / Маъсул муҳаррир Д.А. Алимова; ЎзР ФА Тарих институти, Марказий Осиёни тадқиқи қилиш француз институти IFEAC. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
2. Аширов А. «Авестодан» мерос маросимлар (Ўзбек халқи турмуш тарзида зардуштийлик диний маросимлар анъанаси). – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.
3. Исмоилов Ҳ. Ўзбек тўйлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
4. Расулова З.А. Тошкент шаҳри ўзбекларининг оила-никоҳ муносабатлари (XX аср охири ХХИ аср бошлари): Тарих фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2009. 36 б;
Тошева Гулруҳ Суяровна. XX асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари: Тарих фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2002.
5. Сафаров О. Ҳайитова Ф. «Куёв элтиш», «Келин элтиш» удумлари ва жарлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1991. № 6.
6. Маткаримова Н.М. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври): Тарих фанларидан фалсафа доктори (PhD)...дис. – Нукус, 2020.
7. Ҳайитова Ф.Б. Никоҳ тўйи кўшиқларининг лисоний талқини: Филология фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 1999.
8. Тошева Г.С. XX асрда Қашқадарё воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари: Тарих фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 2002.
9. Соатова С.А. Юқори Зарафшон воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (ХИХ аср охири ХХ аср боши): Тарих фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 1999.
10. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani, Bo'ston qishlog'i. 2022-yil.
11. Задыхина К.А. Узбеки дельты Аму-Дарьи // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т.І. – М., 1952.